Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish.....	2535
Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimmetriyasini bartaraf etish	2543
To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
Uzakov Arslon Avazovich	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich	
Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
Xusanboy Mamatqulov	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
Yo'ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
Ayupova Xilola Azamatovna	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
Касимов Азиз Бердимуратович	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatini tahlili.....	2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
Amriyeva Difuza Ruzievna	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati.....	2617
Raxmatova Nodira	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi	
Funksiya grafigini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhraxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov Toxir To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons in the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaql Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам.....	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoeemotsional holatining tahlili.....	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	
O'qituvchilarda stressni boshqarish ko'nikmalarining dars samaradorligiga ta'siri	2687
Nazarova Sitora Maxamatovna	
Improving Media Competence Development in Future Teachers.....	2689
Urinov Rustambek Yoqubjonovich	
Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari: zamonaviy ta'limda kreativ fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishning o'rni	2694
Berdiyeva Nilufar Berdiyev qizi	
Boshlang'ich sinflarda ulush tushunchasini 4K modeli orqali o'rgatish metodikasi	2699
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Abdiqudirova Aziza Shukurboy qizi	
Noto'liq oilalarda maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishi va xulq-atvori.....	2706
Barno Masharipova Erkin qizi, Sabirbaeva Aydana	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2710
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi	
Роль рефлексивных свойств в развитии психологической компетентности.....	2715
Рахманова Дилноза Фармановна	
XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli.....	2718
Rajabova Nodirabegim Komilovna	
PhET veb-platformasi orqali o'quvchilarning fizika fanidan mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish (Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari misolida).....	2720
Axmedov Yodgorbek Olimjonovich	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda mediasavodxonlikni shakllantirish – mediatahdidlarning oldini oluvchi omil sifatida.....	2724
Ortiqova Nargiza Akramovna	
Talabalarda aksiologik yondashuvga asoslangan tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning falsafiy-pedagogik negizlari	2729
Abdurazzakova Zebiniso Akmalxon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlarini takomillashtirish	2733
Sanginova Gulnoza Baxodirovna	
Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida raqamli monitoring platformalarini joriy etishning ta'lim sifati va kasbiy rivojlanishga ta'siri	2740
Bisenbaev Islambek Qaypnazarovich	
Individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishda pedagogik yondashuvlar	2744
Kabilova Sevara Rashid qizi	



Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqaruv tamoyillaridan foydalanishni takomillashtirish.....	2748
Rajabova Nargiza Ahmadovna	
Ложь как социально-психологический феномен: генезис и функции в процессе социализации личности.....	2751
С. Ю. Нишанов	
Формирование личностных и профессиональных качеств директоров: педагогическая деятельность дошкольных образовательных организаций, психологические особенности	2756
Мухторова Заррина Султоновна, Бектошева Динора Зоҳиджон кизи	
Персональные данные директоров дошкольных образовательных организаций: анализ передового зарубежного опыта формирования профессиональных качеств.....	2759
Мухторова Заррина Султоновна, Амридинова Гуласал Аминжоновна	
Inklyuziv ta'limda zamonaviy tibbiy tashxisning o'rni va ahamiyati.....	2762
Raximov Atanazar Karimovich, Yuldashova Iroda Dilshodovna, Mitalova Nargiza Salibaevna	
Tehnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari.....	2765
Abduraimova Gulnoza Sharif qizi	
Matematika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish	2769
Xolmurzayeva Nigora Abdimurotovna	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish	2774
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li	
Harakatlanuvchi robotlarda to'siqlarni aniqlash uchun kalman filtr texnologiyasi	2780
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Raximov Muzaffar Mirzohid o'g'li	
Milliy ertak qahramonlari haykallarini yasash orqali o'quvchilarda badiiy obrazni tahlil qilish metodikasini shakllantirish	2785
Qodirov Bobirjon Botirjonovich	
Boshlang'ich sinflarda o'yin texnologiyalari asosida savod o'rgatish jarayonini takomillashtirish	2790
Husenova Aziza Sharipovna, Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi	
Rus tilidagi harakat natijasi holat fe'llarining leksik-semantik guruhlar tuzilishi	2794
Kurbanova Gulzoda Yunusovna	
Nemis tilidagi somatik frazeologizmlar va ularning kommunikativ funksiyalari.....	2797
Mirzakarimov Maxmudjon Ro'ziboyevich	
Milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish metodikasi	2800
Murodov Nodirbek Oybek o'g'li	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda o'quv jarayonini loyihalashning nazariy jihatlari.....	2804
Nurullayev Abduhamid Ro'zimboyevich	
Python dasturlash tilida matematik figuralarni chizish metodikasi.....	2809
Rajabova Gulchekhra Salomovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya asosida yondashuvlarni kompetensiyaviy rivojlantirishdagi ahamiyati.....	2814
Sadriiddinova Zulfiya Mirzaliyevna	
Bo'lajak mutaxassislarda integrativ yondashuv asosida kasbiy-madaniy munosabatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish.....	2820
Saidova Barno Narzullayevna, Usmonova Sabina Iloxom qizi	
Boshlang'ich sinflarda etnopedagogik namunalaridan foydalanish usullari	2823
Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi, Sultonova Sevinch Doston qizi	
Психологические методы диагностики правонарушающего поведения в подростковом возрасте	2827
Пардаева Умида Мухтар кизи	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirish	2831
U. Y. Axmedova, M. M. Ibrohimova	
XX asr boshlarida buxoro hududida ichki migratsiya jarayonlarining sabablari va oqibatlari	2834
Nuriddinov Abrorbek To'liqin o'g'li	
Ijtimoiy-tarixiy tafakkurni shakllantirish kompetensiyasi.....	2838
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Saidova Oygul Husenovna	
Ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalarning imkoniyatlari	2841
Tursunova Gulsora Adahamjon qizi	
Ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning samarali metodik tizimini yaratish imkoniyatlari.....	2844
Olimov Timur Xasanovich, Yuldashev Ta'lant Abdinazarovich	
Методические возможности ИКТ-тестирования в контроле учебных достижений учащихся старших классов (по результатам педагогического эксперимента).....	2848
Уразова Марина Ботировна, Асанова Кямила Усмановна	



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MILLIY TARBIYA ASOSIDA YONDASHUVLARNI KOMPETENSIYAVIY RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya asosidagi yondashuvlar orqali kompetensiyaviy rivojlanish jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – milliy tarbiya tamoyillari asosida pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish hamda ularning ta'lim jarayonida samarali qo'llanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, maqolada kompetensiyaviy yondashuvlarning metodologik asoslari, amaliy qo'llanilishi va bo'lajak o'qituvchilarning professional rivojlanishiga ta'siri yoritib beriladi. Tadqiqotda milliy tarbiyaga asoslangan kompetensiyalarni shakllantirishning ta'lim jarayoniga qo'shadigan ahamiyati hamda mavjud metodik muammolar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qituvchisi, milliy tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik tayyorgarlik, oliy ta'lim, professional rivojlanish.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the processes of competency-based development of future primary school teachers based on national upbringing. The main objective of the study is to develop pedagogical competencies grounded in the principles of national upbringing, to enhance teachers' professional training, and to identify the possibilities for their effective application in the educational process. In addition, the article outlines the methodological foundations of the competency-based approach, its practical implementation, and its influence on the professional development of future teachers. The study also offers a scientifically grounded analysis of the significance of forming competencies based on national upbringing for the educational process, as well as the existing methodological challenges.

Key words: primary school teacher, national upbringing, competency-based approach, pedagogical training, higher education, professional development.

Аннотация: В статье с научно-теоретических позиций анализируются процессы компетентностного развития будущих учителей начальных классов на основе национального воспитания. Основной целью исследования является формирование педагогических компетенций на основе принципов национального воспитания, повышение профессиональной подготовки учителей, а также выявление возможностей их эффективного применения в образовательном процессе. Кроме того, в статье раскрываются методологические основы компетентностного подхода, особенности его практического применения и влияние на профессиональное развитие будущих педагогов. В ходе исследования на научной основе анализируется значение формирования компетенций, основанных на национальном воспитании, для образовательного процесса, а также существующие методические проблемы.

Ключевые слова: учитель начальных классов, национальное воспитание, компетентностный подход, педагогическая подготовка, высшее образование, профессиональное развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida nafaqat bilimli, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarini uyg'unlashtira oladigan, ma'naviy yetuk va kompetensiyaviy jihatdan rivojlangan pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasi turibdi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs kamolotining poydevori hisoblanib, bu bosqichda faoliyat yurituvchi o'qituvchining kasbiy, axloqiy va milliy-madaniy salohiyati o'quvchilarning keyingi ta'lim jarayoni hamda hayotiy qarashlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda milliy tarbiya g'oyalarini ta'lim mazmuniga chuqur singdirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasida yosh avlodni milliy va umumin-



soniy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlaydigan hamda raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifa etib ko'rsatilgan. Ushbu strategik hujjatda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish, pedagoglarning kasbiy mahorati va ma'naviy madaniyatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Zamonaviy pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv o'qituvchining faqat fan bilimlariga emas, balki kommunikativ, ijtimoiy, madaniy, axloqiy va refleksiv kompetensiyalarga ega bo'lishini nazarda tutadi. Milliy tarbiya esa ushbu kompetensiyalarning mazmuniy asosi bo'lib, unda xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, an'analar hamda ma'naviy-axloqiy qarashlari mujassamdir. Shu bois, milliy tarbiya asosidagi yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning "O'zgalarni o'zgartirmoqchi bo'lgan inson, avvalo, o'zini o'zgartirishi lozim" degan hikmatli fikri pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablarning mohiyatini yaqqol ifodalaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, eng avvalo, o'zida milliy qadriyatlar, pedagogik madaniyat va kasbiy mas'uliyatni mujassamlashtirgan shaxs bo'lmog'i lozim. Chunki o'quvchi uchun birinchi va eng ta'sirchan namuna aynan o'qituvchi shaxsidir. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya asosidagi yondashuvlarini kompetensiyaviy rivojlantirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy tarbiya asosidagi kompetensiyaviy yondashuvlarning ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, ularning kasbiy rivojlanishidagi o'rnini aniqlash hamda samarali pedagogik mexanizmlarni taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni faqat fan bilimlarini o'zlashtirish bilangina cheklanmasdan, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq holda qaralmoqda. Ayniqsa, milliy tarbiya asosida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish masalasi global ta'lim tendensiyalari fonida alohida dolzarblik kasb etmoqda. Milliy tarbiya masalasi Sharq pedagogik tafakkurida inson shaxsini kamol toptirishning asosiy omili sifatida talqin etilgan. Xususan, Alisher Navoiy o'z asarlarida insonning ma'naviy yetukligi, axloqiy pokligi va komil shaxs sifatida shakllanishini tarbiya jarayonining poydevori sifatida ko'rsatadi (Navoiy, 2011).¹ Mutafakkirning qarashlariga ko'ra, tarbiya jarayonida yetakchi omil – tarbiyachining shaxsiy fazilatlar, odobi va jamiyat oldidagi mas'uliyatidir. Ushbu yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchisining nafaqat bilim beruvchi, balki milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy mezonlar va ijtimoiy xulq-atvor namunalarini shakllantiruvchi yetakchi shaxs ekanini anglatadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchining shaxsiy namuna asosida ta'sir ko'rsatishi o'quvchilarda milliy o'zlik, hurmat, mas'uliyat va vatanparvarlik tuyg'ularining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlari ta'lim-tarbiyani milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda talqin qilganlar. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyoti bevosita ta'lim-tarbiya sifati va shaxs kamoloti bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarbiya axloqiy fazilatlar va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish orqali amalga oshiriladi (Forobiy, 1993). Bu qarashlar bugungi kompetensiyaviy yondashuvning ma'naviy asoslari bilan uyg'unlashadi.² Zamonaviy G'arb pedagogikasida o'qituvchining shaxsiy pozitsiyasi va qadriyatlari ta'lim samaradorligining muhim omili sifatida qaraladi. Shulman (1987) o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini "pedagogik mazmuniy bilim" tushunchasi orqali izohlab, bunda shaxsiy e'tiqodlar va kasbiy qarashlarning muhim rol o'ynashini asoslab beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun bu jihat ayniqsa muhim, chunki u bolalar uchun dastlabki ijtimoiy va axloqiy namuna hisoblanadi.

Pedagogik psixologiya doirasida milliy tarbiya va kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlik Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi orqali izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bolalar xulq-atvor, munosabat va qadriyatlarni asosan kattalar faoliyatini kuzatish orqali o'zlashtiradilar (Bandura, 1986). Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisining milliy qadriyatlarga asoslangan xulqi o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.³ O'zbekiston pedagog olimlari tadqiqotlarida ham milliy tarbiya asosida kompetensiyaviy rivojlantirish masalasi keng yoritilgan. Yo'ldosheva (2021) boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda milliy tarbiya va kasbiy kompetensiyalar o'zaro uyg'un holda rivojlantirilishi zarurligini ilmiy asoslaydi. Muallif o'qituvchining shaxsiy fazilatlar va pedagogik madaniyati ta'lim sifati ko'rsatkichlarini belgilashini qayd etadi.⁴ Karimova (2022) tadqiqotlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan. Uning fikricha, boshlang'ich sinf o'qituvchisi milliy tarbiyani ta'lim mazmunining ajralmas qismi sifatida anglagan taqdirdagina kompetensiyaviy rivojlanish samarali bo'ladi.⁵

1 Navoiy, A. (2011). Mukammal asarlar to'plami (10-jild). Toshkent: Fan.

2 Forobiy, A. N. (1993). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Fan.

3 Bandura, A. (1986). Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

4 Shulman, L. S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1–22.

5 Yo'ldosheva, D. B. (2021). Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy tarbiyaning o'rnini ta'lim va innovatsiya, 3, 28–34.

Davlat miqyosida ham mazkur masala normativ-huquqiy hujjatlar orqali mustahkamlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartida o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ijtimoiy mas'uliyat hamda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan (O'zbekiston Respublikasi MMTV, 2023). Ushbu talablar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni yanada kengaytiradi. Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetensiyaviy rivojlanishida milliy tarbiya asosida yondashuv muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv o'qituvchining kasbiy bilimlari bilan bir qatorda, uning shaxsiy namuna, axloqiy pozitsiya va milliy qadriyatlarga sodiqligini ham rivojlantirishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya asosida kompetensiyaviy rivojlanish jarayonini kompleks ilmiy tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, unda zamonaviy pedagogik metodologiyaning fundamental tamoyillariga tayanildi. Tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv, aksiologik yondashuv hamda madaniy-tarixiy yondashuvlarning integratsiyasi asosida olib borildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi tanlandi. Ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchini faqat bilim oluvchi subyekt sifatida emas, balki milliy qadriyatlarni ongli ravishda o'zlashtiruvchi va pedagogik faoliyatda namoyon etuvchi shaxs sifatida talqin etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim sharoitida o'qituvchi shaxsining tarbiyaviy ta'siri ustuvor ahamiyat kasb etishi mazkur yondashuvning dolzarbligini yanada oshiradi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv pedagog kadrlar tayyorlash jarayonining yetakchi metodologik yo'nalishi sifatida qaraldi. Ushbu yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qadriyat va munosabatlarning integrallashgan tizimini shakllantirishni nazarda tutadi. Milliy tarbiya esa mazkur kompetensiyalarning mazmuniy asosini tashkil etib, pedagog shaxsida milliy o'zlikni anglash, axloqiy mas'uliyat va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda aksiologik yondashuv alohida metodologik ahamiyatga ega bo'lib, u ta'lim jarayonida qadriyatlar tizimining ustuvorligini asoslab beradi. Milliy tarbiya mazkur yondashuv doirasida o'qituvchi shaxsida milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un holda shakllantirish mexanizmi sifatida talqin etildi. Bu esa bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatida tarbiyaviy vazifalarning ustuvorligini belgilaydi. Madaniy-tarixiy yondashuv doirasida milliy tarbiya pedagogik hodisa sifatida xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va an'analari bilan uzviy bog'liq holda o'rganildi. Ushbu yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini milliy madaniyat kontekstida shakllantirish imkonini beradi hamda ta'lim jarayonining ijtimoiy-madaniy mazmunini boyitadi. Tadqiqot metodlari sifatida nazariy tahlil, ilmiy taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil metodi orqali milliy tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik kompetensiya hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy shakllanishiga oid tushunchalarning mazmun-mohiyati ochib berildi, ularning pedagogika fanidagi talqinlari aniqlashtirildi. Ushbu metod yordamida turli ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy qarashlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinib, tadqiqotning konseptual yo'nalishi belgilandi.

Ilmiy taqqoslash metodi milliy va xalqaro pedagogik tajribalarni qiyosiy tahlil qilishda qo'llanildi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuvning xorijiy ta'lim tizimlaridagi talqini bilan milliy ta'lim modelidagi yondashuvlar solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy tarbiya komponentlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi. Tizimlashtirish metodi orqali pedagogik adabiyotlar, milliy va xalqaro ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda konseptual dasturlarda keltirilgan ma'lumotlar mantiqiy tizimga solindi. Ushbu metod bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalarni guruhlariga ajratish, ularning mazmuniy tarkibini aniqlash va o'zaro bog'liqligini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etdi. Konseptual modellashtirish metodi esa milliy tarbiya asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetensiyaviy rivojlanish tizimini nazariy model sifatida ifodalash imkonini berdi. Ushbu model orqali milliy tarbiya elementlari, kompetensiyalar tizimi va pedagogik tayyorgarlik jarayonining o'zaro aloqadorligi aniqlanib, tadqiqot natijalarini mantiqiy va tizimli talqin etishga zamin yaratildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlari va pedagog kadrlar tayyorlashga oid hujjatlar tahlili asosida milliy tarbiya komponentlarini kompetensiyaviy yondashuvga integratsiyalash mexanizmlari ishlab chiqildi. Tadqiqotning metodologik mantiqi kirish, adabiyotlar sharhi hamda keyingi natijalar va muhokama bo'limlari bilan uzviy bog'liq holda qurildi. Mazkur metodologiya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy shakllanishida milliy tarbiya asosida kompetensiyaviy rivojlanish jarayonini ilmiy asosda yoritish, aniqlangan natijalarni tizimli talqin etish va umumlashtirish imkonini berdi.



TAHLIL VA NATIJALAR


Tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetensiyaviy rivojlanishida milliy tarbiya asosidagi yondashuvning samaradorligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pedagogik tayyorgarlik jarayonida milliy qadriyatlar va an'analarga asoslangan kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilar orasida olib borilgan so'rov va kuzatuvlar natijasiga ko'ra, milliy tarbiya asosida kompetensiyalarni shakllantirish quyidagi yo'nalishlarda samarali bo'lgani aniqlandi. Ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar – bo'lajak o'qituvchilar o'z shaxsida milliy qadriyatlarni anglash, axloqiy me'yorlarga rioya qilish va o'quvchilarga namuna bo'lish qobiliyatini rivojlantirdilar. So'rov natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 78%i o'z kasbiy tayyorgarligida milliy tarbiyaga e'tibor qaratish muhimligini yuqori baholagan. Kasbiy-pedagogik kompetensiyalar – dars va tarbiyaviy jarayonlarda milliy qadriyatlarni integratsiyalash qobiliyati shakllandi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning 72%i pedagogik metodlarni milliy tarbiya bilan uyg'unlashtira olishga tayyor ekanliklarini bildirgan. Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar – o'quvchilar va ota-onalar bilan muloqotda milliy madaniyatga moslash qobiliyati rivojlandi.

Respondentlarning 65%i o'zlarini jamoaviy ishlarda, milliy qadriyatlarni inobatga olgan holda samarali muloqot qila olishga tayyor deb baholagan. Madaniy kompetensiya – milliy madaniyat, tarix va an'analarga hurmat ruhida ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyati aniqlandi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, pedagogik amaliyot davomida milliy elementlarni dars mazmuniga tatbiq etish 70% hollarda samarali bo'lgan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, milliy tarbiya asosida kompetensiyaviy rivojlangan bo'lajak o'qituvchilar shaxsiy fazilatlarini, axloqiy pozitsiyasi va madaniy ongini uyg'unlashtirgan holda o'quvchilarga samarali ta'sir ko'rsatadi. Xususan, nazorat va kuzatuv natijalari shuni tasdiqladiki, milliy tarbiya elementlarini pedagogik jarayonga integratsiya qilgan talabalar o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, hurmat, vatanparvarlik va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirgan.

1-jadval: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetensiyalarining shakllanish darajasi

Kompetensiya turi	Shakllanish darajasi (%)	Izoh
Ma'naviy-axloqiy	78%	Milliy qadriyatlarni anglash va axloqiy namuna ko'rsatish
Kasbiy-pedagogik	72%	Milliy tarbiya elementlarini dars mazmuniga tatbiq etish
Ijtimoiy-kommunikativ	65%	Jamoaviy ishlarda milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish
Madaniy	70%	Milliy madaniyat va an'analarni ta'lim jarayonida qo'llash

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning yuqori darajada shakllangan kompetensiyalari pedagogik jarayonning samarali tashkil etilishiga, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy tarbiya asosida shakllangan kompetensiyaviy rivojlanish bo'lajak pedagoglarning shaxsiy fazilatlarini, axloqiy pozitsiyasi va madaniy ongini uyg'unlashtirish orqali ularning professional salohiyatini yanada oshiradi. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" va "Tarbiya" fanlari o'quv dasturlariga milliy-ma'naviy meros elementlarining integratsiya qilinishi talabalarda shunchaki bilim emas, balki "pedagogik qadriyat" fenomenini shakllantirdi. Xususan, kommunikativ kompetensiya doirasida: "Sharqona muloqot san'ati" moduli orqali talabalar o'quvchi shaxsiga "aziz inson", "kelajak vorisi" sifatida qarash ko'nikmasini o'zlashtirdilar.



1-rasm: Talabalarining milliy-pedagogik kompetensiyaviylik darajasi (foiz hisobida)



Natijada pedagogik muloqotda milliy etika qoidalarini (lutf, tavoze, bosiqlik, og'zaki rag'bat) qo'llash darajasi tajriba guruhlarida 1,5 baravarga oshdi. Bu ko'rsatkich bo'lajak o'qituvchilarning sinf jamoasida ma'naviy-ruhiy iqlimni boshqarish imkoniyatini kengaytirdi. Kreativ yondashuv va didaktik mahorat: milliy o'yinlar, maqol va matallarni dars mavzusiga bog'lash darajasining 30%ga oshishi talabalarning darsga ijodiy tayyorgarlik ko'rish motivatsiyasini ko'rsatdi. Bo'lajak o'qituvchilar dars ishlanmalarida milliy qadriyatlarni fan mazmuniga "sun'iy" emas, balki "mantiqiy" bog'lashni (masalan, matematika darsida me'morchilik obidolari yoki o'lchov birliklari orqali hisoblash ko'nikmalarini o'rgatish) o'rgandilar. Kompetensiyaviy rivojlanish darajalarining qiyosiy tahlili. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy natijalari talabalarning milliy tarbiya asosidagi kompetensiyaviylik darajasida jiddiy sifat o'zgarishlari yuz berganligini ko'rsatdi. Ushbu o'zgarishlar 1-jadvalda batafsil aks ettirilgan.

Yuqori darajadagi (+16%) o'sish talabalarning milliy tarbiya metodlarini mustaqil ravishda modifikatsiya qila olishi va yangi pedagogik loyihalarni yaratish olishidan dalolat beradi. Past darajadagi ko'rsatkichning 29% ga kamayishi tadqiqotning eng muhim yutug'idir. Bu holat avval faqat an'anaviy darslik matni bilan cheklangan (reproduktiv) talabalarning milliy o'zlikni anglash va kasbiy mas'uliyatni his qilish orqali faol, kompetensiyaviy yondashuvga o'tganligini isbotlaydi. O'rta darajadagi (58%) barqarorlik esa aksariyat bo'lajak o'qituvchilar milliy tarbiya asosida dars o'tishning bazaviy metodikasini to'liq o'zlashtirganligini hamda uni amaliyotda samarali qo'llay boshlaganligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarning nazariy tayyorgarligi bilan bir qatorda, ularning real pedagogik amaliyot sharoitida milliy tarbiya asosidagi yondashuvlarni qay darajada faol qo'llay olishlarini ham o'rganish imkonini berdi.

2-jadval: Bo'lajak o'qituvchilar tomonidan milliy tarbiya elementlarini amaliy qo'llash darajasi (%)

Faoliyat turi	Qo'llash darajasi (%)
Darsda milliy elementlarni tatbiq etish	75%
Tarbiyaviy mashg'ulotlar	68%
Ota-ona bilan muloqot	62%
Jamoaviy tadbirlar	70%

Jadval va diagramma tahlili bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan milliy tarbiya yondashuvlarini o'zlashtirish va tatbiq etishda quyidagi yo'nalishlarning ustuvor ekanligini ko'rsatdi: darsda milliy elementlarni tatbiq etish (27%) – eng yuqori ko'rsatkich aynan o'quv jarayonining o'zida qayd etildi. Bu holat bo'lajak pedagoglarning milliy qadriyatlar va an'analarni fan mazmuniga (masalan, ona tili darslarida Vatan madhini, matematika darslarida milliy me'morchilik geometriyasini) integratsiya qilish bo'yicha yuqori darajadagi kasbiy-pedagogik kompetensiyaga erishganliklaridan dalolat beradi. Ular bevosita ta'lim jarayonida milliy ruhni shakllantirish vositalarini samarali boshqara oladilar.

Tarbiyaviy mashg'ulotlar (25%) va jamoaviy tadbirlar (25%) teng ulushni tashkil etib, talabalarning sinfdan tashqari va umummaktab tadbirlarini (milliy bayramlar, adabiy kechalar, muzeylarga sayohatlar) milliy tarbiya g'oyalari asosida tashkil etishda faol ishtirok etishlarini ko'rsatadi. Bu esa ularning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalari yuqori darajada shakllanganligidan dalolat beradi. Ota-ona bilan muloqot (23%) yo'nalishida diagrammadagi eng past ko'rsatkich kuzatildi. Ushbu natija bo'lajak o'qituvchilarning milliy tarbiya tamoyillari asosida (masalan, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, avlodlararo munosabatlarni tartibga solish) ota-onalar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish bo'yicha qo'shimcha metodik yordamga yoki amaliy ko'nikmalarga ehtiyoj sezishlarini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kompetensiyaviy rivojlantirishida milliy tarbiya asosidagi yondashuvning muhim pedagogik va ilmiy ahamiyatga ega ekanligini isbotladi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar va an'analarni pedagogik faoliyatga integratsiyalash o'quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda sezilarli samaraga erishishga xizmat qiladi. Bu natija nafaqat milliy ta'lim mazmunining boyligi, balki o'qituvchining shaxsiy namunasi hamda axloqiy pozitsiyasining tarbiyaviy ta'siri bilan ham izohlanadi.

Tadqiqot davomida milliy tarbiya asosida kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha aniqlangan yuqori darajalar – ma'naviy-axloqiy (78%), kasbiy-pedagogik (72%) va madaniy (70%) – pedagogik nazariyalar bilan uzviy bog'liq ekanligi kuzatildi. Xususan, Bandura (1986) tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasida ta'kidlanganidek, bolalar shaxsiy xulq-atvor va qadriyatlarni kattalar faoliyati orqali o'zlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchining milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik faoliyati o'quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Kuzatuv va so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy tarbiya elementlarini amaliy tatbiq etish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich dars jarayonida (75%) qayd etilgan. Bu, bir tomondan, o'qituvchilarning pedagogik metodika va didaktik mahoratining yetukligini, ikkinchi tomondan esa milliy qadriyatlarni fan mazmuniga integratsiyalash qobiliyatini ifodalaydi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlik (62%) sohasidagi nisbatan past ko'rsatkich



pedagogik jarayonda milliy tarbiya tamoyillarini oilaviy kontekstda kengaytirish zaruratini ko'rsatadi. Ushbu holat o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda jamiyat va oilaning o'zaro hamkorligini kuchaytirish imkoniyatini ochib beradi. Shuni ta'kidlash joizki, milliy tarbiya asosidagi kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nafaqat kasbiy tayyorgarligini, balki ularning ijtimoiy, axloqiy va madaniy kompetensiyalarini ham tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladigan strategik vosita hisoblanadi. Shu bois, mazkur tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda, ta'lim dasturlarini takomillashtirishda hamda o'qituvchilarni tayyorlashning yangi metodologik asoslarini yaratishda empirik baza sifatida foydalaniishi mumkin.

XULOSA

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayyorgarligida milliy tarbiya asosida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar va an'analarni pedagogik faoliyatga integratsiyalash orqali o'qituvchilar o'z kasbiy, axloqiy hamda madaniy kompetensiyalarini uyg'unlashtirib rivojlantira oladi. Bu esa nafaqat dars jarayonida, balki tarbiyaviy mashg'ulotlar, jamoaviy tadbirlar va ota-onalar bilan hamkorlikda ham ijobiy natijalarni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ayrim yo'nalishlarda, xususan, ota-onalar bilan kommunikatsiya va amaliy faoliyatni rivojlantirishda qo'shimcha metodik yordam hamda pedagogik treninglarga ehtiyoj mavjudligi aniqlanadi.

Shuni hisobga olgan holda, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Pedagoglarning shaxsiy va professional kompetensiyalarini rivojlantirish – milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va pedagogik madaniyatni uyg'unlashtirgan trening hamda seminarlarni tashkil etish.
2. O'quv dasturlarini milliy tarbiya bilan boyitish – dars mazmuniga tarixiy, madaniy va ma'naviy elementlarni tizimli ravishda integratsiyalash.
3. Amaliy faoliyatni mustahkamlash – talabalarni amaliyot jarayonida milliy tarbiya asosida kompetensiyalarni qo'llashga yo'naltirish, jamoaviy tadbirlar va oilaviy hamkorlikni rivojlantirish.
4. Pedagogik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash – yangi pedagogik loyihalar, didaktik materiallar va metodik vositalarni ishlab chiqish hamda ularni sinovdan o'tkazish.

Ushbu tavsiyalarni izchil amalga oshirish pedagogik tayyorgarlik tizimini modernizatsiya qilishga, o'qituvchilarning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishga hamda milliy tarbiyani zamonaviy ta'lim jarayonlariga samarali integratsiyalashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura, A. (1986). Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Prentice-Hall.
2. Forobiy, A. N. (1993). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Fan.
3. Navoiy, A. (2011). Xamsa. Toshkent: Sharq.
4. OECD. (2019). Learning compass 2030: Skills for a changing world. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264313481-en>
5. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1–22. <https://doi.org/10.17763/haer.57.1.j463w79r56455411>
6. Slastenin, V. A. (2016). Pedagogical personality: Theoretical foundations. Moscow: Prosveshchenie.
7. Zeer, E. F. (2018). Competence-based approach in modern education. Moscow: UNITY-DANA.
8. Yo'ldosheva, F. (2021). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda milliy tarbiya va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
9. Karimova, N. (2022). Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish. Toshkent: Ilm-Ziyo.
10. O'zbekiston Respublikasi MMTV. (2023). Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
11. Mirzaliyevna, S. Z. (2025). Milliy tarbiya asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish. Bilgi Çeşmesi, 1(6), 88–94.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.